

## **YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASIDA ISLOMIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI**

**Ergashev Maftunquli Asror o‘g‘li,**

Samarqand davlat universiteti

E-mail: [maftunqulie@gmail.com](mailto:maftunqulie@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu davr nuqtai nazaridan kelib chiqib quydagi maqolada yoshlarimiz ongida, dunyoqarashida kuzatilayotgan ma‘naviy-axloqiy kamchiliklar, ularning ijtimoiy munosabatlarda jumladan, oila, yon atrofdagilar bilan munosabatlar, islom dinida axloq masalasi, yoshlarni islom axloqiy qadryatlari ruhida tarbiyalashning ahamiyati, ajdodlarimizning boy ma‘naviy-axloqiy merosi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Axloq, din, islom, qadryat, Qur’on, Xamsa, oila, jamiyat, hadis, tasavvuf.

## **THE IMPORTANCE OF ISLAMIC VALUES IN THE MORAL EDUCATION OF YOUTH**

**Abstract:** From the point of view of this period, the following article discusses the spiritual and moral shortcomings in the minds and worldviews of our youth, their social relations, including family, relationships with others, the issue of morality in Islam, the importance of educating young people in the spirit of Islamic moral values -moral heritage.

**Key words:** Morality, religion, Islam, values, Qur'an, Hamsa, family, society, hadith, mysticism.

Bugun o‘ylab qarasak, insoniyat zamonamizga qadar uzoq tarixiy davrni boshdan kechirdi,qanchadan qancha tanazzul-u taraqqiyotga guvoh bo‘ldi. Shu bilan birga ijobiy ma‘noda boy moddiy-ma’naviy merosga ega bo‘ldi, bu borada katta yutuqlarga erishildi. Biroq, dono xalqimizning ta’biri bilan aytganda: „Bir yaxshining bir yomoni, bir yomonning bir yaxshisi bor“ deganlaridek, bu taraqqiyot, rivojlanish insoniyatga ulkan muvaffaqiyatlar berganligini inkor etmagan holda salbiy jihatlarini ham tan olish joiz. Yaqin tarixda yuzaga kelgan hamda insoniyat hayotining bir qismiga aylanib ulgurgan “internet” va “ijtimoiy tarmoqlar” shu bilan birga, “globallashgan sivilizatsiya” hamda “madaniyatlar to‘qnashuv”, “ommaviy madaniyat” kabi hodisa va jarayonlar ko‘pchilik insonlar ayniqsa,yoshlar ongi,tafakkuri va dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o‘ynay boshlagani ayni haqiqat. Biz o‘z qadriyatlarga ega, imon-e‘tiqod kabi muqaddas tushunchalarni qalbida mustahkam tutgan tarixiy xalq bo‘lishimiz bilan birga zamonaviy dunyoda o‘z o‘rnini egallahsga,jahonning buyuk davlatlari bilan bo‘ylashishga intilayotgan bir xalqmiz. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov minbardan turib ko‘p bora “Kelajak yoshlarimizning qo‘lida” - , deya ta’kidlaganlar. Modomiki, kelajak yoshlarning qo‘lida ekan, yoshlarimizni yuqorida aytib o‘tgan hodisa-jarayonlarning salbiy jihatlari ta’siriga tushib qolmasligi uchun ularni imonli, eng muhimi go‘zal axloqli qilib tarbiyalashimiz lozim.

Biz tez-tez eshitadigan “yoshlar buzulib ketyapti”, “hozirgi yoshlarning axloqi yomon bo‘lib ketayapti” va hokazo gaplar beziz emas.Bunday hollarning asosiy sababi imon-e‘tiqodning zaifligi yoki ularning umuman bo‘lmasligidir. Alloma Homid Ahmad Tohir hazratlarining ta’biri bilan aytganda: “...boshqa jamiyatlarda kuchli diniy asoslarining yetishmasligi ortidan ma’naviy va ruhiy inqiroz kelib chiqib, tobora chuqurlashib borayotganini bugun har birimiz ko‘rib guvohi bo‘lib turibmiz. Ammo bu- bizning jamiyatimizda bugun shaxslararo,oilaviy yoki umumijtimoiy muammolar, ma’naviy pasayishlar kuzatilmayapti degani emas”<sup>1</sup> “Unda farzandlarimizda imon-e‘tiqodni, go‘zal axloqni qanday shakllantirmoq

<sup>1</sup> Homid Ahmad Tohir “Rasulullohning yoshlarga nasihatlari”-Toshkent: YANGI ASR AVLODI-2022-Y. 3-bet

kerak?” degan savol tug‘uladigan bo‘lsa, hech ikkilanmasdan aytishim mumkinki, bunda bizga dini islom va buyuk ajdodlarimizning xususan, Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning namunaviy hayoti yordamga keladi. Insonga nimaki u yaxshi g‘oyadir yoki yomon g‘oyadir agar, e’tiqod darajasida singdirilsa u inson tutgan yo‘lidan hech qachon ozmaydi. Shuning uchun ham yoshlarni dunyoqarashi-yu ongini yot g‘oyalar, hatti-harakatlarini buzuq axloqiy mezonlar egallamasdan oldin, ularni go‘zal axloq bilan bo‘lganda ham haq din bo‘lmish islom axloqi ila tarbiyat etmoq shu jihatdan dolzarbdir, ahamiyatlidir.

Islom-go‘zal axloq dinidir. Dinimizda inson(banda)ning chiroyli xulq bilan xulqlanishini amr etilgan. Solihlar aytadiki, kim go‘zal xulq bilan xulqlansa, dinda barchadan o‘zibdi. Zero, Allohu Taolo o‘z Payg‘ambari bo‘lmish Muhammad sollallohu alayhi va sallamga qarata shunday xitob qiladi:

عَظِيمٌ خُلُقٌ لَعَلَى وَإِنَّكَ

“Siz buyuk xulq uzradirsiz”(Qalam:4)

E’tibor bergan bo‘lsangiz Alloh o‘z Rasuliga siz buyuk “din” yoki “islom” uzrasiz demadi balki, “buyuk xulq” ustidasiz deya xitob qildi. Bundan, din bu-axloqdir. Kim dinini mahkam tutmoqchi bo‘lsa, go‘zal axloqlar bilan sifatlanmog‘i, kim go‘zal axloqqa ega bo‘lishni istasa dinini yani, islomni mahkam tutmog‘i kerak bo‘ladi degan ma’noni tushunishimiz mumkin bo‘ladi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday deganlar: “Men go‘zal xulqlarni mukammal qilish uchun yuborilganman”<sup>2</sup>, deganlar(Imom Bazzor rivoyati, Imom Ahmad boshqa lafz bilan rivoyat qilgan).

Agar diqqat qilsak, dinimizdagи barcha farz-u vojiblar:namoz, ro‘za, haj va boshqa amallar barcha barchasi insonni nafsimi yengishga, chiroyli sifatlar bilan sifatlanishiga sabab bo‘ladi. Kimda kim islom amallarini ixlos bilan chin dildan ado qilsa, u inson go‘zal axloqqa berishibdi deb bemalol aytishimiz mumkin.

<sup>2</sup> Homid Ahmad Tohir, “Rasulullohning yoshlarga nasihat” -Toshkent: YANGI ASR AVLODI-2022-Y ,12-bet

Shahobiddin Suhravardi o‘zining “Avarif-i Maarif”(Haqiqiy Tasavvuf ) kitobida bir bahsli mavzuni, yani “Axloq,xulq-atvor azaliy uni o‘zgartirib bo‘lmaydi” degan qarash haqida fikr yuritib, bu haqida ushbu fikrlarni keltiradi: “Ba’zi olimlar, insonning yaratilishidan o‘zgarmagani(tashqi shakl nazarda tutilgan) kabi xulq-atvori ham o‘zgarmas, deydilar va bunga dalil o‘laroq quydag‘i hadisi – sharifni ilgari suradilar: “Robbimiz, jismlarni,axloqlarni,rizqlarni hamda o‘limni taqdir qilib bo‘lgan”<sup>3</sup>

Ammo, eng to‘g‘risi shuki, insonning zohirida hech bir narsa o‘zgarmaydi. Faqat va faqat axloqlarining o‘zgarishi mumkindir. Shunday bo‘lgani uchun ham Rosululloh sollallohu alayhi va sallam: “Axloqingizni go‘zallashtiring”, deya buyurganlar”<sup>4</sup>.

Ba’zi toifa kishilari o‘zlarining xunuk axloqlarini, yomon odatlarini “mening xarakterim shunaqa”, “borim shu” xullas, bukrini go‘r to‘g‘irlaydi qabilidagi so‘zlar bilan o‘zlarini oqlamoqchi bo‘ladilar. Ammo, yuqorida ko‘rdikki, chiroyli sifatlar bilan sifatlanish o‘z qo‘limizda. Dinimiz(Islom)da go‘zal axloq bilan xulqlanishda bir nozik jihat bor. U ham bo‘lsa, eng kichik amalga ham katta ahamyat berishidir. Bunday amallarga: yo‘ldan ozorni olib tashlash, ota-onaga “uff” demaslik, birodariga tabassum bilan qarash, aksa urganda “yarhamukalloh” deyish va hokazolardir. Bu sanoqni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ko‘philigimiz bularga aksar hollarda ko‘p ham ahamyat bermaymiz ammo, dinimiz bularning ayrimlariga kattadan-katta ajrlar va’da qilgan bo‘lsa ,ayrimlaridan qattiq qaytargan.

Al-Jalol Al-Basriy: “Insonda tavhid bo‘lmog‘i uchun imon lozim bo‘ladi. Imoni bo‘lmaganning tavhidi ham yo‘qdir. Imon esa dinni lozim tutmoqlikni talab qiladi. Dini bo‘lmaganning imoni va tavhidi yo‘qdir. Din uchun esa adab lozimdir. Shu ayonki, adab sohibi bo‘lmaganning haqiqiy ma’noda dini imoni tavhidi yo‘qdir”<sup>5</sup>- deya bizga islomda axloqning ahamyati haqida ta‘lim berar ekanlar biz bundan o‘zimizga kerakli xulosalarini olishimiz shart bo‘ladi. Holbuki, bizning bugun boshqa

<sup>3</sup>Şihabuddin Sühreverdi “Avarifü'l Mearif”- [www.tasavvufekitap.com](http://www.tasavvufekitap.com). 228-bet.

<sup>4</sup>Şihabuddin Sühreverdi “Avarifü'l-Mearif”- [www.tasavvufekitap.com](http://www.tasavvufekitap.com). 226-bet

<sup>5</sup>Şihabuddin Sühreverdi “Amarifü'l-Mearif”- [www.tasavvufekitap.com](http://www.tasavvufekitap.com). 228-bet

xalqlardan ma‘naviy jihatdan, odob-axloq borasida xususan, g‘arbdan nimadir o‘rganishga, axloqda ularga taqlid qilishga hech ehtiyojimiz yo‘q. Chunki, bizning buyuk Robbimiz bor,Muhammad deb atalmish Nabiyimiz bor. Bizning A.Navoiy, F.Attor,A.Yassaviy,Z.M.Bobur kabi buyuk bobolarimiz bor. Qur’onimiz bor. “Xamsa”, “Matiq ut-tayr”, “Ilohiynoma”, “Boburnoma” singari buyuk kitoblarimiz bor. Biz agar taqlid qilishimiz kerak bo‘lsa, mana shu buyuk insonlarga taqlid qilishimiz, agar ma‘naviy kamol topmoqchi bo‘lsak, farzandlarimizni qo‘yingki, yoshlarni go‘zal axloqli qilib tarbiya qilmoqchi bo‘lsak, avvalo o‘zimiz yuqorida nomlarini zikr qilgan ilohiy, buyuk kitoblarimizning hayot chashmasidan bahramand bo‘lishimiz, so‘ngra esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak.

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib xulosa yasaydigan bo‘lsak, ushbularni alohida takidlash kerak: Birinchidan, “terrorizm”, “ekstremizm” kabi yoki shunga o‘xshash gaplarni eshitganda ko‘pchilikning hayolida dinimiz haqida yomon,xunuk tasavvur paydo bo‘ladi. Shu sababli biz bunday boutil o‘y-fikrlardan halos bo‘lishimiz,dinimizning poklik,ezgulik, go‘zal axloq dini ekanligini bilishimiz kerak. Ikkinchidan, dinimizni o‘rganishimiz shartdir. Eng asosiysi Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning siyratlarini o‘rganish, sahabalar, tobienlar, taba’tobienlarni tanish ularning ibratli hayotidan voqif bo‘lish, shu jumladan Hazrat Navoiyning umr yo‘llaridan xabardor bo‘lish, Farididdin Attor hazratlarini tanish, boshqa buyuk ajdodlarimizning siyratlarini o‘rganishimiz lozim. Uchunchidan, boshqa xalqlarga ma‘naviy-ma’rifiy sohada namuna bo‘ladigan ulkan merosga ega ekanligimizni teran anglash va bunga munosib bo‘lishimiz darkor.

Ularni ma‘naviy jihatdan ta‘lim-tarbiya tizimida ona tili, adabiyot, tarix, ma‘naviyat asoslari tarbiya fanlariga singdirish, o‘quv rejalariga kiritish lozim.

**Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati**

1. Homid Ahmad Tohir –“Rasulullohning yoshlarga nasihat”-Toshkent: YANGI ASR AVLODI -2022-Y. 3-12-betlar
2. Şihabuddin Sühreverdi “Avarif-i Maarif” <https://www.tasavvufekitap.com>
3. “Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri” Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009.
4. [Ziyouz.com](http://Ziyouz.com)
5. [Acikbilim.yok.gov.tr](http://Acikbilim.yok.gov.tr)